

## PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING XOTIN-QIZLAR INSPEKTORLARI BILAN HAMKORLIGI AMALIYOT VA NAZARIYA

*Jumaqulov Xudoyberdi Axmed o'g'li*

*IIV Akademiyasi 3 o'quv kurs*

*317-guruh kursanti*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif ayollarni zoravonlikdan himoya qilish sohasida O'zbekiston Respublikasining tajribasini, ularni zo'ravonlikdan himoya qilishni tashkiliy, huquqiy asoslarini, profilaktika inspektorlarining xotin-qizlar inspektorlari bilan hamkorligi bo'yicha amaliyotdagi holat va nazariyani yoritib, mamalakatimizda ayollar huquq va erkinliklarini himoya qilish yuzasidan mamlakatmidagi islohotlarini ko'rsatib o'tgan.

**Kalit so'zlar:** *Xotin-qizlar bo'yicha inspektor, ichki idoraviy hamkorlik, idoralararo hamkorlik, ayollarni xavfsizligini ta'minlash, zo'ravonlik, gender tenglik, ayollar daftari.*

### АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи автор освещает опыт Республики Узбекистан в сфере защиты женщин от насилия, организационно-правовые основы их защиты от насилия, практическое положение и теорию взаимодействия инспекторов профилактики с женщинами-инспекторами, и защита прав и свобод женщин в нашей стране показали реформы в стране.

**Ключевые слова:** *Инспектор по делам женщин, межведомственное взаимодействие, межведомственное взаимодействие, обеспечение безопасности женщин, насилие, гендерное равенство, женская тетрадь.*

### ANNOTATION

Through this article, the author sheds light on the experience of the Republic of Uzbekistan in the field of protecting women from violence, the organizational and legal foundations of their protection from violence, the practical situation and theory of the cooperation of prevention inspectors with women inspectors, and the protection of women's rights and freedoms in our country. showed the reforms in the country.

**Key words:** *Inspector for women, inter-departmental cooperation, inter-departmental cooperation, ensuring the safety of women, violence, gender equality, women's notebook.*

2019 yil 2 sentyabrda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, u ayollarni uyda, ish joyida, ta'lim muassasalarida zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunda bir

qator tushunchalar, «jinsiy zo‘ravonlik», «jismoniy zo‘ravonlik», «iqtisodiy zo‘ravonlik», «ruhiy zo‘ravonlik» «zo‘ravonlik», «tazyiq» kabi tushunchalarga keng ta'rif berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi «Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5116 sonli qarori bilan 1 ta Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlari hamda zo‘ravonlik qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo‘lgan 1146 qisqa raqamli «Call-center» tashkil etildi.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni tuzatish dasturlari to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan huquqiy va ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha 360 nafar inspektorlar shtat birligi joriy etildi.

### **Onalar salomatligi sohasida:**

Onalar va bolalar salomatligini har tomonlama mustahkamlashni ta'minlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2017 yil 25 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta aniqlash bo‘yicha 2018-2022 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorda, jumladan, homilador ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda patologiyani erta aniqlash bo‘yicha davlat tizimini yanada rivojlantirish, bolalarda nogironlikni kamaytirishga doir vazifalar belgilangan.

2019 yil 11 martda "Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun bilan ayollar va erkaklarga reproduktiv huquqlarini amalga oshirishda teng huquq va imkoniyatlar, farzandlarining tug‘ilishi bilan bog‘liq mustaqil qarorlar qabul qilish huquqi belgilandi, xavfsiz va samarali texnologiyalardan foydalanish kafolatlandi.

2019 yil 23 oktyabrda “Ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunda ko‘krak suti bilan boqishni qo‘llab-quvvatlash, go‘daklar va yosh bolalarning ovqatlanishini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, davlat organlarining vakolatlari belgilandi.

### **Ayollarning mehnat va bandlik sohasidagi huquqlarini ta'minlash sohasida:**

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlarga muvofiq xotin-qizlarni ayrim sohalar yoki kasblarga jalb qilish taqiqlari bekor qilindi, shuningdek, ayollar sog‘lig‘iga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan sohalar yoki kasblarning tavsiya etiladigan yangi ro‘yhati tasdiqlandi.

Ayollar 60 yoshga to'lgunga qadar pensiya yoshiga yetgan yoki qonun bo'yicha keksa yoshdagi pensiya olish huquqini yaratganligi sababli noma'lum muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini bekor qilish taqiqlanadi.

Ayollar va oilalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan biznes-inkubator shaklida "Ayollar tadbirkorlik markazlari" tashkil etildi, ularning asosiy vazifalari tug'ruq ta'tilida bo'lgan va og'ir iqtisodiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga qayta tayyorlashdan iborat. Maxsus o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan ayollar uchun Jamg'arma va xalqaro tashkilotlarning mablag'lari hisobiga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun kamida 3 yil, 6 oylik imtiyozli davr va yillik 8 foiz stavkasi bilan imtiyozli kreditlar beriladi.

### Xulosa

Biz turli tadbirlar o'tkazish orqali jamoatchilik e'tiborini gender zo'ravonlik muammosiga qaratib kelmoqdamiz. Keng ko'lamlı jarayon doirasida mamlakatimizning turli hududlarida anjumanlar, taqdimotlar, seminar treninglar, targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Shuningdek, turli videoroliklar, ma'rifiy materiallar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlar va internet resurslar, OAV orqali tarqatilmoqda. Albatta, gender zo'ravonlik muammosiga bag'ishlab tadbirlar o'tkazilishi keng jamoatchilik orasida katta rezonansga sabab bo'lmoqda. Eng asosiysi, mana shu vaqt davomida ko'plab xotin-qizlar o'z huquqlarini tanib, ular himoyasiga butun bir davlat va jamiyat otlanganini tushunadilar. Zo'ravonlikka qo'l urishi mumkin bo'lgan shaxslar esa har qanday nojo'ya harakat jazosiz qolmasligini anglab yetadilar. Eng asosiysi, zo'ravonlikka duch kelingan har qanday vaziyatda ham yechim topilishiga ishonch kuchayadi. Bu ishga har birimiz munosib hissa qo'sha olishimizni doimo esda tutaylik.

Gender tenglikni to'laqonli ta'minlash eng avvalo ular bilan ko'proq ishlash, ularni muammolarini o'rganish, zo'ravonliklardan jabrlanishini oldini olishini ta'minlash, barcha qatori ularga to'laqonli huquq va imtiyozlarni berilishini nazorat qilishni talab etiladi. Profiliktika inspektori eng asosiy quyidagi ikki yo'nalishda xotin-qizlar bilan ishlash inspektorlari bilan hamkorlik qiladilar:

- ✓ Huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilishi ehtimoli bo'lgan xotin-qizlarni aniqlash va ularni huquqbuzarlik va jinoyatni sodir etishini oldini olish, ularga chek qo'yish yuzasidan hamkorlik qilish.
- ✓ Huquqbuzarlik va jinoyatdan jabrlanish ehtimoli bo'lgan xotin-qizlarni aniqlash va ularni huquqbuzarlik va jinoyatdan jabrlanishini oldini olish, ularga chek qo'yish yuzasidan hamkorlik qilish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.:”O’zbekiston” – 2017 y. 295 – 297 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T. Ma’naviyat, 2008, - 138 – 140 – bet.
3. Mamarasulov B.Sh. Milliy g’oyaning substansional va institutsional xususiyatlari (O’zbekiston misolida). Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati. – Samarqand. – 2018. 12 – bet.
4. O’zbek tilining izohli lug’ati. 1 – tom. – M. 1981. 520 – bet.
5. Bobomurodov M. Duronov M. Bunyodkor kuch. “Tafakkur” jurnali. – 2003, - №3.- 17 – bet.
6. Yoqubov S. Axborot jamiyati: xayolot emas, haqiqat. Tafakkur. – 2007,- №4. - 24 – bet.